



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2023-YIL — INSONGA E'TIBOR VA SIFATLI TA'LIM YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan • WWW.XS.UZ • E-mail: Info@xs.uz • 2023-yil 19-sentabr, № 196 (8539)

Seshanba Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING AQSHGA TASHRIFI SAMARALI BO'LMOQDA

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev amaliy tashrif bilan Amerika Qo'shma Shtatlarida bo'lib turibdi.



Prezident Shavkat Mirziyoyev Nyu-York shahriga tashrifi doirasida 18-sentabr kuni o'ziga ajratilgan qarorgohda Yevropa kengashi Prezidenti Sharl Mishel, "GE HealthCare" kompaniyasining Yevropa,

yirik investitsiya loyihalari amalga oshirilmoqda, muhim madaniy tadbirlar uyushtirilmoqda.

Uchrashuv chog'ida Kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi bitimni tez fursatda qabul qilish, o'zaro savdo

texnologik hamkorlikni kengaytirish, jumladan, zamonaviy yuqori texnologik uskunalarni yetkazib berish va ularni mahalliy lashtirish loyihalarini amalga oshirish niyatida.

"GE HealthCare" kompaniyasi



Toshkent shahri infratuzilmasini rivojlantirish loyihalarini moliyalashtirish mo'ljallangan.

Bundan tashqari, kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlashga investitsiya yo'naltirish ko'zda tutilgan.

mashinalarini ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish, shu jumladan, yuqori quvvatli traktorlar ishlab chiqarish hamda lizing tuzilmalariga to'g'ridan-to'g'ri moliyaviy resurslar ajratish rejalarini bayon qildi.

aloqida ta'kidladi.

Joriy yil 15-sentabr kuni Vashington shahrida AQSHning 250 dan ortiq kompaniya va banklari vakillari ishtirokida o'tgan qo'shma biznes forumining samarali yakunlari katta



Yaqin Sharq va Afrikadagi prezidenti va bosh ijrochi direktori Rob Uolton, "Oppenheimer" investitsiya kompaniyasi boshqaruvchi direktori Jon Tonelli, "Cerberus" kompaniyasi vitse-prezidenti Brayan Xuk, "CNH" kompaniyasi vitse-prezidenti Stiv Naderni, "Cintana" kompaniyasi rahbari Duglas Bekker, Amerika — O'zbekiston savdo palatasi raisi Kerolin Lemm, "Air Products" kompaniyasi boshqaruvchi raisi, prezidenti va bosh ijrochi direktori Seyfi Gasemi va Xalqaro valyuta fondi boshqaruvchi direktori Kristalina Georgiyeva bilan uchrashuv o'tkazildi.

Sharl Mishel bilan uchrashuvda O'zbekiston va Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi ko'p qirrali hamkorlikni, eng avvalo, siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy va gumanitar sohalarida yanada kengaytirish masalalari ko'rib chiqildi.

Ikki tomonlama munosabatlarda bugun g'oyat yuksak darajaga erishilgan alohida mamnuniyat bilan qayd etildi. Yevrokengash rahbarining O'zbekistonga tashrifi, "YI — Markaziy Osiyo" formatidagi sammitlar, O'zaro bog'liqlik bo'yicha xalqaro konferensiya va iqtisodiy forumlar muvaffaqiyatli o'tkazildi.

Yevrokengash Prezidenti Sharl Mishel Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlikni ilgari surish, ishonch, yaxshi qo'shnihilik va sheriklik munosabatlarini mustahkamlashda O'zbekiston rahbari yetakchi rol o'ynayotganini qayd etdi.

Samarali xalqaro transport yo'laklarini, xususan, Transkaspiy multimodal marshrutini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi.

Afg'onistonda yuzaga kelayotgan vaziyat, shu jumladan, afg'on xalqiga gumanitar yordam ko'rsatish borasidagi sa'y-harakatlar yuzasidan ham fikr almashildi.

Bo'lajak ko'p tomonlama tadbirlar rejasini ko'rib chiqildi.

"GE HealthCare" kompaniyasining Yevropa, Yaqin Sharq va Afrikadagi prezidenti va bosh ijrochi direktori Rob Uolton bilan uchrashuvda korporatsiyaning mamlakatimizda qo'shma loyihalarni amalga oshirish borasidagi rejalarini muhokama qilindi.

Dunyoning industrial giganti bo'lgan "General Electric" korporatsiyasi strategik sheriklik doirasida O'zbekiston korxonalarini bilan investitsiyaviy va

prezidenti Rob Uolton sog'liqni saqlash sohasida kardiograflar ishlab chiqarish, skrining va kardio axborot tizimi yo'lga qo'yilishini ta'kidladi. Bundan tashqari, investor O'zbekistonda Milliy tibbiy ma'lumotlar arxivini yaratishda ishtirok etishni rejalashtirmoqda.

Uchrashuv yakunida qo'shma loyihalarni amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi"ni qabul qilishga kelishib olindi.

1994-yilda "General Electric" tarkibida tashkil etilgan "GE HealthCare" bosh qarorgohi Chikagoda joylashgan tibbiy texnologiyalar sohasidagi transmilliy kompaniya. Korporatsiya aktivlari qariyb 28 milliard dollarni tashkil etadi.

"Oppenheimer" investitsiya kompaniyasi boshqaruvchi direktori Jon Tonelli bilan uchrashuv ham samarali bo'ldi.

Prezidentimiz ushbu rejalarini ma'qullab, mutasaddilarga tez fursatda amaliy ishlarni boshlashga topshiriq berdi.

"Cerberus" kompaniyasi vitse-prezidenti Brayan Xuk bilan uchrashuvda iqtisodiyotning turli tarmoqlarida qo'shma loyihalarni amalga oshirish masalalari ko'rib chiqildi.

Aktivlari qiymati 60 milliard dollardan ziyod bo'lgan global investitsiya korporatsiyasi kommunikatsiyalar tar-mog'i, foydali qazilmalarni qazib chiqarish, transport va energetika infratuzilmasini modernizatsiya qilish loyihalariga to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar yo'naltirishni rejalashtirgan.

Vitse-prezident Brayan Xuk ilk hamkorlik loyihalari joriy yilning oxiriga qadar boshlanishini ta'kidladi.

Uchrashuv yakunida hamkorlik bo'yicha "Yo'l xaritasi"ni qabul qilishga kelishib olindi.

Aktivlari qiymati qariyb 50 milliard dollar bo'lgan "CNH" transmilliy kompaniyasi qishloq xo'jaligi mashinasozligida O'zbekistonning strategik hamkoridir. Mashhur "Case" va "New Holland" brendlari ostida yo'l qurish va qishloq xo'jaligi texnikalarini ishlab chiqaradi.

Uchrashuvda vitse-prezident Stiv Naderni kompaniyaning tarmoqdagi bir qator sanoat korxonalarini xususiy lashtirish va modernizatsiya qilish, kombayn va paxta yig'ish

Prezidentimiz kompaniyaning O'zbekistondagi faoliyatini kengaytirish borasidagi rejalarini qo'llab-quvvatladi.

"Cintana" kompaniyasi Arizona davlat universiteti bilan hamkorlikda tashkil etilgan bo'lib, dunyoning 30 mamlakatida faoliyat yuritadi, universitetlarda ta'lim sifatini oshirish bilan shug'ullanadi.

"Cintana" asoschisi va raisi Duglas Bekker Arizona davlat universiteti bilan hamkorlikda mamlakatimizda Amerika texnologiyalar universitetini tashkil etish ustida ish olib bormoqda.

2024-yildan boshlab sog'liqni saqlash, injiniring, arxitektura va dizayn kabi yo'nalishlarda malakali kadrlar tayyorlashni boshlash ko'zda tutilgan.

Davlatimiz rahbari ushbu rejalarini ma'qullab, O'zbekiston ta'lim sohasidagi loyihalarni amalga oshirish uchun qulay sharoitlar yaratishga tayyorligini bildirdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Amerika — O'zbekiston savdo palatasi raisi Kerolin Lemm bilan uchrashdi.

Tadbirda "GE HealthCare", "Oppenheimer", "Cerberus", "CNH" va "Cintana" korporatsiyalari rahbarlari ham ishtirok etdi.

O'zbekiston yetakchisi uchrashuv ishtirokchilarini Amerika — O'zbekiston savdo palatasi tashkil etilganining 30 yilligi bilan tabriklab, ushbu tuzilma ikki tomonlama savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikni kengaytirishda muhim o'rin tutishini

mamnuniyat bilan qayd etildi.

Palata raisi Kerolin Lemm davlatimiz rahbariga Amerika biznesining mamlakatimizga qiziqishi va ishonchi oshishiga xizmat qilayotgan ortga qaytmas islohotlar dasturini amalga oshirishdagi siyosiy yetakchiligi uchun minnatdorlik bildirdi. Keyingi bir necha yilda palata tarkibiga AQSHning yirik kompaniyalari kirgani, ularning umumiy soni 50 taga yetgani ta'kidlandi.

Uchrashuvda AQSH biznesining mamlakatimizdagi faoliyatini kengaytirish borasidagi aniq rejalarini muhokama qilindi.

Uchrashuv yakunida qo'shma loyihalarni amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritalari"ni qabul qilishga kelishib olindi.

"Air Products" kompaniyasi boshqaruvchi raisi, prezidenti va bosh ijrochi direktori Seyfi Gasemi bilan uchrashuvda AQSH Davlat kotibining energetika masalalari bo'yicha o'rinbosari Jeffri Payett ham ishtirok etdi.

AQSHning yetakchi kompaniyasi bilan strategik sheriklikni yanada kengaytirish masalalari, joriy loyihalarning borishi va istiqbolga mo'ljallangan aniq rejalar ko'rib chiqildi.

(Davomi 2-betda).

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati suratlari.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTNING AQSHGA TASHRIFI SAMARALI BO'LMOQDA

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

Bugungi kunda yurtimizda "Air Products" tomonidan "Uzbekistan GTL" da sanoat gazlarini qayta ishlash, "Navoiyazot" negizida sintez-gaz, kislorod va azot, suyuqlirilgan karbonat anhidrid ishlab chiqarish loyihalari amalga oshirilmoqda.

Keyingi ikki yilda ushbu loyihalarning davomi sifatida kompaniyaning 1 milliard dollardan ziyod to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalari jalb qilindi.

Suhbatda ko'mirni gazlashtirish, texnik gazlar, vodorod va ammoniy ishlab chiqarish hamda achchiq gazlarni utilitatsiya qilish bo'yicha istiqbolli loyihalar ko'rib chiqildi.

"Air Products" ekspertlari karbon-sizlashtirish sohasida zarur normativ-huquqiy bazani ishlab chiqishda ham qatnashadi.

Bundan tashqari, loyihalar portfelidan oziq-ovqat sanoatiga innovatsion ishlanmalarni joriy qilish o'rin olgan.

Uchrashuv yakunida "Air Products" kompaniyasining O'zbekiston uchun qiymati 10 milliard dollardan ziyod bo'lgan yangi investitsiya dasturini amalga oshirish bo'yicha kelishuvlar almashildi.

O'zbekiston — AQSH ko'p qirrali hamkorligini kengaytirishga qo'shgan hissasi va mamlakatimizdagi ortga

qaytmas islohotlarni qo'llab-quvvatlagani uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Air Products" boshqaruvi raisi Seyfi Gasemiga yuksak davlat mukofoti — "Do'stlik" ordenini topshirdi.

Xalqaro valyuta fondi boshqaruvchi direktori Kristalina Georgiyeva bilan uchrashuvda global iqtisodiy vaziyat yuzasidan batafsil fikr almashildi. XVF bilan o'zaro manfaatli hamkorlikni, shu jumladan, joriy yil iyun oyida Samarqand shahrida o'tgan ikki tomonlama uchrashuvda erishilgan kelishuvlardan kelib chiqqan holda yanada kengaytirish masalalari ko'rib chiqildi.

Fond rahbari O'zbekistonda ortga qaytmas tus olgan islohotlar dasturi natijalariga yuqori baho berdi hamda mamlakatimizdagi samarali yangilanishlarni ilgari surishda yaqindan hamkorlik qilishga tayyorligini bildirdi.

Uchrashuv chog'ida XVFning yurtimiz moliya sohasi barqarorligini kompleks tahlil qilish, iqtisodiy siyosatni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqishda konsalting kompaniyasini jalb qilish hamda mamlakatimiz idoralari mutaxassislarining salohiyatini yuksaltirish dasturini amalga oshirishdagi ishtirokiga doir masalalar muhokama qilindi.

Amaliy tashrif doirasida O'zbekiston

Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Amerika Qo'shma Shtatlarida yashayotgan va ishlayotgan bir guruh vatandoshlarimiz hamda ushbu mamlakatning yetakchi oliy ta'lim dargohlarida tahsil olayotgan "Elyurt umidi" jamg'armasi stipendiatlari bilan uchrashdi.

Ochiq va jonliq muloqot shaklida o'tgan tadbirda davlatimiz rahbari Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida so'zlab berdi, mamlakatimiz modernizatsiyasiga ko'maklashishda vatandoshlarimizda ulkan salohiyat borligiga e'tibor qaratdi.

Vatandoshlar va ularni birlashtiruvchi tashkilotlar misli ko'rilgan yuqori darajaga chiqqan O'zbekiston — AQSH hamkorligini rivojlantirishga katta hissa qo'shayotgani alohida ta'kidlandi.

Davlatimiz rahbari vatandoshlarimiz bilan aloqalarni mustahkamlash, ularning jamoat birlashmalari faoliyatini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qator tashabbuslarni ilgari surdi. Xususan, xorijda o'zbek tili kurslarini tashkil etishga keng ko'maklashish, vatandoshlar O'zbekistonning tarixiy shaharlarini ziyorat qilishi uchun maxsus turizm xizmatlari to'plamlarini ishlab chiqish rejalashtirilgan.

— Biz ta'lim, tibbiyot, iqtisodiyotda olib borayotgan yangilanishlar natijasini har bir yurtdoshimiz o'z hayotida his qilishi kerak. Sizlardek xorijda o'qigan,

yirik kompaniyalarda ishlab, tajriba orttirgan yuqori malakali mutaxassislar ham yurtimizga qaytib kelishi va butun salohiyati bilan Yangi O'zbekistonda barpo etishda ishtirok eta olishlari uchun barcha sharoitni yaratishimiz kerak, — dedi Prezidentimiz. — Bugun shu yerdagi har bir o'zbekistonlikda kuchli Vatan hissi va uning rivojiga hissa qo'shish ishtiyoqini ko'rib, juda xursand bo'ldim. Sizlarni O'zbekistonda kutib qolamiz.

Uchrashuv ishtirokchilari Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan amalga oshirilayotgan tub va keng ko'lami islohotlar xalqimiz farovonligini yanada oshirish, yurtimizning xalqaro maydondagi nufuzini yuksaltirishga xizmat qilayotganini ta'kidladilar.

Katta kompaniyalarda ishlayotgan va nufuzli oliy ta'lim dargohlarida o'qiyotgan vatandoshlar o'z fikr va takliflarini bildirdi. Jamiyat hayoti va iqtisodiyotning turli masalalari yuzasidan fikr almashildi.

Qaratilayotgan katta e'tibor uchun samimiy minnatdorlik bildirib, vatandoshlar O'zbekiston rivojiga munosib hissa qo'shishga tayyorligini ta'kidladilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Amerika Qo'shma Shtatlariga amaliy tashrifi davom etmoqda.

O'ZA.

Xorijiy OAV:

YANGI O'ZBEKISTONNING TARAQQIYOT STRATEGIYASI BMT MAQSADLARIGA HAMOHANG

Shu kunlarda jahon ommaviy axborot vositalarining diqqat-e'tibori BMT Bosh Assambleyasining Nyu-Yorkda o'z ishini boshlayotgan 78-sessiyasiga qaratilgan. Unda O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ham ishtirok etmoqda. Shu munosabat bilan bir qator xorijiy ommaviy axborot vositalarida O'zbekiston, shuningdek, Markaziy Osiyodagi boshqa davlatlarning BMT bilan hamkorligiga e'tibor qaratilmoqda.

Masalan, Latviyaning yetakchi "LETA" axborot agentligi portalida ushbu mavzuga bag'ishlangan maqola e'lon qilindi.

Unda qayd etilishicha, so'nggi yillarda Markaziy Osiyo tashqi siyosiy sheriklar va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirishning yangi bosqichiga qadam qo'ydi. Ular orasida BMT muhim o'rin tutadi.

"Markaziy Osiyo mamlakatlari va BMT o'rtasidagi hamkorlikni yo'lga qo'yish jarayonida mintaa davlatlari mintaqaviy rivojlanish va xavfsizlikning ko'plab dolzarb muammolariga yechim topishda sezilarli muvaffaqiyatlarga erishdilar. Ular orasida Markaziy Osiyoda yadro qurolidan xoli hududni yaratish, Afg'onistondagi vaziyatni hal etish bo'yicha xalqaro sa'y-harakatlarda faol qatnashish, BMTning Global terrorizmga qarshi kurash strategiyasini amalga oshirish bo'yicha Markaziy Osiyo davlatlarining Qo'shma harakatlar rejasini qabul qilish va amalga oshirish, G'iyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va ular prekursorlarining qonunga xilof ravishda muomalada bo'lishiga qarshi kurashish bo'yicha Markaziy Osiyo mintaqaviy axborot muvofiqlashtirish markazini ta'asis etish, Orol dengizi muammosi bo'yicha BMT maxsus komissiyasini tuzish hamda BMTning "Bosh Assambleyada Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasiga kuzatuvchi maqomini berish" to'g'risidagi

rezolyutsiyasini qabul qilish masalalari mavjud.

Xitoyda nashr etiladigan "Diplomat" jurnali sahifasida Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, ekologik barqarorlik va fuqarolarning hayot kechirish sifatini yaxshilashga qaratilgan qayd etilgan maqola chop qilindi.

O'zbekistonda 2030-yilgacha barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish har bir insonning huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlash uchun BMTning "hech kimni ortda qoldirmang" degan asosiy tamoyiliga muvofiq amalga oshirilishi ta'kidlanadi.

Barqaror rivojlanish yo'lida qabul qilingan islohotlar O'zbekistonga BMT BRM indeksida sakkiz pog'onaga ko'tarilish imkonini berdi. Bu mamlakatda amalga oshirilayotgan muhim muvaffaqiyat va o'zgarishlardan dalolat berishi barobarida barqaror rivojlanish uchun tanlangan yo'nalishning to'g'ri ekanligini tasdiqlaydi.

Maqolada BMT doirasida O'zbekiston tomonidan ilgari surilgan barcha tashabbuslar dunyoda tinchlik va barqarorlikni saqlash, inson huquqlarini himoya qilish hamda barqaror taraqqiyotni ta'minlashga salmoqli amaliy hissa qo'shganiga qayd etilgan. Mamlakatimiz BMT va uning ixtisoslashtirilgan idoralari bilan o'zaro manfaatli hamkorlikni

yanada kengaytirish va chuqurlashtirish tamoyiliga amal qilishi ham ta'kidlangan.

Barqaror rivojlanish jamiyatning barcha sohasida doimiy sa'y-harakatlar va uyg'un hamkorlikni talab qiladigan jarayon ekanligi O'zbekiston misolida keltiriladi, deb xulosa qilinadi "Diplomat" jurnalida.

Qirg'izistonning ommabop "Alliance.press.kg" axborot portalida yozishlaricha, so'nggi yillarda Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasida BMT va uning institutlari bilan xavfsizlik sohasidagi hamkorlik sezilarli darajada faollashmoqda. O'zbekiston va mintaqadagi boshqa davlatlarning xalqaro tadbirlarni birgalikda o'tkazish, aniq texnik yordam dasturlarini amalga oshirish va xalqaro xavfsizlik sohasidagi amaliy hamkorligi faollashgani mintaa mamlakatlari Birlashgan Millatlar Tashkiloti bilan Markaziy Osiyoda rivojlanishni hamda tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha muhim tashabbuslarni amalga oshirish borasida o'zaro aloqalarni yanada chuqurlashtirishdan manfaatdor ekanligidan dalolat beradi.

"Slovo Kirgizstana" umummilliy gazetasida O'zbekistonning BMT bilan hamkorligiga e'tibor qaratilgan. "O'zbekiston BMT Bosh Assambleyasi va ixtisoslashtirilgan muassasalar faoliyatining faol ishtirokchisi hisoblanadi. Xususan, O'zbekiston rahbari BMT Bosh Assambleyasining 72, 75 va 176-sessiyalarida, shuningdek, BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashi 46-sessiyasining yuqori darajadagi segmentida ishtirok etdi va so'zga chiqdi", deb yozadi nashr muxbiri.

Maqolada ta'kidlanishicha, so'nggi yillarda O'zbekiston



rahbari BMT minbaridan global va mintaqaviy kun tartibining dolzarb masalalari bo'yicha qator muhim xalqaro tashabbuslarni ilgari surdi.

Nashrda yozishlaricha, BMT Bosh Assambleyasi doirasida oltita rezolyutsiya ishlab chiqilgan va qabul qilingan. Bular "Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik, barqarorlik va ichkil taraqqiyotni ta'minlash bo'yicha mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash to'g'risida" (2018-yil, iyun), "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" (2018-yil, dekabr), "Markaziy Osiyoda barqaror turizm va barqaror rivojlanish" (2019-yil, dekabr), "Orolbo'yini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar zonasida deb e'lon qilish to'g'risida" (2021-yil, may), "Markaziy va Janubiy Osiyo o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni mustahkamlash bo'yicha" (2022-yil, iyul), "Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishni jadallashtirishda parlamentlarning rolini kuchaytirish to'g'risida" (2022-yil, dekabr) rezolyutsiyalardir.

Gazetada muhtakam tinchlikning faol tarafdori va hamkorlikni har tomonlama kengaytirish tashabbuskori sifatida O'zbekiston bundan keyin ham BMT va unga a'zo davlatlar bilan hamkorlikka katta e'tibor qaratishi haqidagi ma'lumotlar ham keltirilib o'tilgan.

"Kazaxstanskaya pravda" gazetasida ta'kidlanishicha, 2017-yilda siyosiy, savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar sohalarda mintaqaviy hamkorlikni faollashtirish jarayoni boshlangani munosabati bilan BMT bilan hamkorlik hozirgi paytda multaaqo yangi bosqichga ko'tarilgan.

Nashrda qayd etilishicha, mintaa davlatlari va BMT o'rtasidagi hamkorlikning muhim yo'nalishi Afg'onistonda tinchlik o'rnatish jarayonini ilgari surish bo'lib qolmoqda. O'zbekiston va mintaa davlatlari Afg'onistonda mamlakatda tinchlik va barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan mintaqaviy savdo-iqtisodiy aloqalarga jalb etish borasidagi sa'y-harakatlarga alohida e'tibor qaratmoqda.

Gazetada BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrishning quyidagi fikrlari keltirilgan: "Markaziy Osiyodagi mintaqaviy hamkorlik umumiy vazifalarni, shu jumladan, terrorizmga qarshi kurash, chegara xavfsizligini mustahkamlash, diniy yetakchilar va muassasalar bilan muloqotni rivojlantirish, odam savdosi va g'iyohvandlik moddalari kontrabandasiya qarshi kurashish bilan bog'liq vazifalarni hal qilish uchun katta imkoniyatlar yaratadi".

Shu nuqtai nazardan, maqolada Markaziy Osiyo BMTning Global terrorizmga qarshi kurash strategiyasini har tomonlama amalga oshirishni boshlagan birinchi mintaqaga aylangan, Qo'shma harakatlar rejai esa mintaqaviy yondashuv asosida ishlab chiqilgan BMT Global antiterror strategiyasini amalga oshirish bo'yicha amalda birinchi doiraviy dastur ekanligi alohida ta'kidlangan.

"Dunyo" AA.

IKKI TOMONLAMA VA KO'P TOMONLAMA MULOQOTNI RIVOJLANTIRISH HAMDA MUSTAHKAMLASH YO'LIDA

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining yalpi majlisida ishtiroki doirasida Nyu-York shahrida bo'lib o'tadigan "C5+1" formatidagi birinchi oliy darajadagi sammitda qatnashadi.

"C5+1" formati Markaziy Osiyo davlatlari va AQSH o'rtasidagi ko'p tomonlama muloqot hisoblanadi. Ushbu muloqot 2015-yil noyabr oyida Samarqand shahrida mintaa davlatlari va AQSH tashqi siyosat idoralari rahbarlarining birinchi uchrashuvida boshlangan edi. Bundan ko'zlangan maqsad dolzarb masalalar yuzasidan muvofiqlashtirish, ishbiarmonlik muhitini rivojlantirish, ekologik muammolarga, ekstremizmga qarshi kurashish, gumanitar aloqalarni kengaytirish bilan izohlanadi.

"C5+1" muloqoti vazirlarning birinchi uchrashuvi yakunlari bo'yicha Sheriklik va hamkorlik to'g'risida qo'shma deklaratsiya qabul qilingan bo'lib, unda AQSHning Markaziy Osiyo davlatlarining suvereniteti, mustaqilligi va hududiy yaxlitligini qo'llab-quvvatlashga sodiqligi, shuningdek, ishtirokchi mamlakatlarning muntazam aloqalarni davom ettirishga tayyorligi qayd etilgan.

Bugungi kunga qadar vazirlarning 12 ta uchrashuvi bo'lib o'tdi. 2021-yil sentabr oyida "C5+1" mamlakatlari vazirlari oqim va atrof-muhit masalalarini muhokama qilish uchun birinchi marta uchrashdi.

"C5+1" formati doirasida Markaziy Osiyoda xorijiy jangarilarga va radikalashuv jarayonlariga qarshi kurashish, tadbirkorlikni rivojlantirish, transport va savdo yo'laklarini takomillashtirish, kelajak energotika jabhasini ravnaq toptirish va iqlim o'zgarishiga moslashish bo'yicha milliy rejalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan loyihalar amalga oshirilmoqda.

Ushbu loyihalar seminarlar, konferensiyalar va treninglar shaklida hayotga tatbiq etilmoqda. 2022-yil aprel oyida "C5+1" formatidagi o'zaro hamkorlikni institutsionalizatsiyalashtirish maqsadida ushbu platforma Kotibiyati o'z ishini boshladi. Uning asosiy maqsadi "C5+1" formati doirasida o'zaro hamkorlikni muvofiqlashtirish, o'tkazilayotgan tadbirlarning tashkiliy masalalarini hal etish, shuningdek, Markaziy Osiyo mamlakatlari va AQSH o'rtasidagi sheriklikni rivojlantirish bo'yicha takliflar tayyorlashdan iboratdir.

"C5+1" doirasida muayyan yo'nalishlar bo'yicha o'zaro hamkorlik muhokamasini uchun har yili uch yo'nalish — iqtisodiyot, atrof-muhitni muhofaza qilish va energetika hamda xavfsizlik bo'yicha ishchi guruhlarining yig'ilishlari o'tkazib kelinmoqda.

Markaziy Osiyo O'zbekiston tomonidan tashqi siyosatning ustuvor yo'nalishi sifatida belgilangan bo'lib "C5+1" formati doirasidagi o'zaro hamkorlik muhim ahamiyatga ega. Chunki

bu mintaqadagi ijobiy integratsiya jarayonlariga bevosita ta'sir etuvchi muhim omil hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan, mazkur format doirasidagi samarali sheriklik barobarida O'zbekiston — AQSH ikki tomonlama hamkorligi izchil mustahkamlanib borayotganini alohida ta'kidlash joiz. O'zbekiston Prezidentining 2018-yil 15 — 17-may kunlari bo'lib o'tgan AQSHga birinchi rasmiy tashrifi ikki davlat o'rtasidagi strategik sheriklikning yangi davriga asos soldi.

So'nggi olti yilda yuqori darajadagi delegatsiyalar almashuvi, idoralararo va parlamentlararo aloqalar, savdo-iqtisodiy va sarmoyaviy hamkorlik faollashdi.

AQSH Kongressi Vakillar palatasida AQSH — O'zbekiston munosabatlarini faollashtirish tarafdori bo'lgan kongressmenlarning norasmiy guruhi — "O'zbekiston bo'yicha kokus" tashkil etilgan bo'lib, u qizg'in faoliyat yuritmoqda.

O'zbekistonda amerikalik investorlar ishtirokidagi korxonalarining soni ham yil sayin ortib bormoqda. "Jeneral Elektrik", "Jeneral Motors", "Xayatt", "Jon Dir", "Boing", "Xaneyvell", "Koka Kola", "Kalatrava", "Silverli" va boshqa konsern hamda kompaniyalarning mamlakatimizda faol ishlayotgani muvaffaqiyatli iqtisodiy sheriklikka misol bo'la oladi.

Qo'shma Shtatlar O'zbekistonning inson huquqlarini himoya qilish sohasida erishgan muvaffaqiyatlarini ham e'tirof etadi. Mamlakatimizda amalga oshirilgan tub islohotlar tafayli "Cotton Campaign" xalqaro nodavlat tashkilotining o'zbek paxtasiga qo'yilgan boykoti bekor qilindi.

Bugungi kunda AQSHda minglab O'zbekiston fuqarolari ishlab, tahsil olmoqda. Ular o'z urf-odatlari va madaniyatini avaylab asrash, diaspora va madaniy uyushmalar doirasida yaqindan muloqot qilish imkoniga ega.

Toshkent va Sietl, Buxoro va Santa-Fe, Zarafshon va Klinton shaharlari o'rtasida o'rnatilgan birodarlik aloqalari madaniyatlararo muloqotni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Muxtasar aytganda, O'zbekiston — AQSH munosabatlari izchil rivojlanib bormoqda. O'zbekiston bu hamkorlikni nafaqat ikki tomonlama, balki ko'p tomonlama formatda ham kengaytirish va mustahkamlashga tayyor.

14-sentabr Dushanbada Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvi bo'lib o'tdi. Bugun esa mintaaqadagi davlatlari rahbarlari Markaziy Osiyo salohiyatini mustahkamlash va uning ravnaqi yo'lida AQSH bilan hamkorlikni yanada rivojlantirish masalalarini muhokama qilishga tayyordir.

"Dunyo" AA.

O'zbekiston — Janubiy Koreya:

PARLAMENTLARARO ALOQALAR AMALIY MAZMUN BILAN BOYIMOQDA

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva boshchiligidagi mamlakatimiz delegatsiyasi shu kunlarda amaliy tashrif bilan Koreya Respublikasida bo'lib turibdi.

Tashrifning dastlabki kuni qator uchrashuvlar o'tkazildi. Xususan, "Janubiy Koreya — O'zbekiston" parlament do'stlik assotsiatsiyasi raisi Pak Kvang On bilan bo'lgan muloqotda ikki tomonlama munosabatlarni yanada mustahkamlashda qonun chiqaruvchi organlarning hamkorlikdagi sa'y-harakatlarini kuchaytirish, uni amaliy mazmun bilan boyitish yuzasidan fikr almashildi.

Xususan, parlamentlararo hamkorlikni yanada rivojlantirish maqsadida do'stlik guruhlarining navbatdagi uchrashuvini 2024-yilda Seul shahrida o'tkazish taklif qilindi.

Shuningdek, oliy darajadagi kelishuvlar ("yo'l xaritalari") va O'zbekiston — Janubiy Koreya hamkorligining barcha yo'nalishi ijrosi ustidan parlament nazoratini ta'minlash maqsadida Senat Raisi boshchilik qiladigan Koreya Respublikasi Milliy Assambleyasi bilan hamkorlik bo'yicha komissiya o'rtasida aloqalarni

kengaytirish masalalari muhokama qilindi.

Shu bilan birga, ijtimoiy-iqtisodiy sohalar, jumladan, kambag'allikni qisqartirish va yangi ish o'rinlari yaratish, so'g'liqli saqlash tizimini takomillashtirish, Orol dengizi qurishining salbiy oqibatlari yumshatish, Orolbo'y mintaqasi ekotizimini yaxshilash borasidagi loyihalar tomonlarning diqqat markazida bo'ldi.

Uchrashuv yakunida muhokama qilingan masalalar yuzasidan hamkorlikni yanada kuchaytirishga kelishib olindi.

Xorijdagi vatandoshlar bilan uchrashuv

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva tashrif doirasida Koreya Respublikasidagi o'qituvchilar, talabalar, tadbirkorlar, IT kompaniyalari mutaxassislaridan iborat bir guruh vatandoshlarimiz bilan muloqot o'tkazdi. Uchrashuvda ijtimoiy-mehnat munosabatlarini rivojlantirish, xorijda

ta'lim olib, ishlayotgan vatandoshlarimiz uchun munosib sharoitlar yaratish, ularning qonuniy manfaatlarini ishonchli huquqiy himoya qilishni ta'minlash xususida so'z bordi.

Shu bilan birga, Senat Raisi vatandoshlarimizning keyinchalik O'zbekistonda turli sohalarida tatbiq etilishi mumkin bo'lgan ilmiy tadqiqot yo'nalishida olib borayotgan izlanishlari bilan qiziqdi. Bunda asosiy e'tibor ta'lim, tibbiyot va innovatsiyalarga qaratildi.

Samimiy ruhda kechgan muloqot chog'ida ishtirokchilar tomonidan mamlakatimizda kadrlar tayyorlash, ta'lim, yoshlar va boshqa sohalariga doir qator masalalar ko'tarilib, amaliy takliflar bildirildi.

Bolalar va yoshlar ta'limi, kadrlar tayyorlash tizimi, shuningdek, ayollar universitetlarini tashkil etish bo'yicha ushbu mamlakat tajribasini batafsil o'rganish, yurtimiz davlat organlari xodimlarini xorijiy davlatlar, xususan, Janubiy Koreya oliy ta'lim muassasalarida bilim olishi uchun tanlov tizimini takomillashtirish, koreys tajribasi misolida o'zbek tilining lug'at bazasini muntazam

yangilab borish va kengaytirish kabi takliflar shular jumlasidandir. Uchrashuv yakunida Senat Raisi bildirilgan takliflarning amalda o'z ifodasini topishi uchun zarur imkoniyatlarining barchasini ishga solishini aytib o'tdi.

O'z navbatida, Koreya Respublikasida ta'lim olayotgan hamda o'z kasbiy faoliyatini olib borayotgan yurtdoshlarimiz bilim va tajribalarini kelajakda yurtimiz taraqqiyoti yo'lida qo'llashga tayyor ekanligini bildirdi.

Strategik sheriklikka asoslangan yaqin munosabatlar

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva Koreya Respublikasiga tashrif doirasida Milliy Assambleya Spikeri Kim Chjin Pyxo bilan muzokara o'tkazdi.

O'zbekiston va Janubiy Koreya o'rtasidagi do'stlik hamda alohida strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlash, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, madaniy-gumanitar, ayniqsa, parlamentlararo aloqalarni kengaytirish masalalarini muhokama qilindi.

Parlamentlararo hamkorlik samarali yo'lga qo'yilgani, parlament rahbarlarining o'zaro tashriflari doirasida amaliy kelishuvlarga erishilgani, do'stlik guruhlarining o'zaro muloqoti faollashgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

O'zbekiston va Janubiy Koreya hududlararo hamkorligini kengaytirish, xususan, mahalliy Kengashlar o'rtasida aniq chora-tadbirlar ko'rsatib o'tilgan qo'shma dasturni qabul qilish orqali hududlardagi deputatlar o'rtasida yaqin aloqalar o'rnatish yuzasidan fikr almashildi.

Koreya Respublikasi O'zbekistonning Osiyo — Tinch okeani mintaqasidagi yetakchi savdo-iqtisodiy sheriklaridan biri. Shu nuqtai nazardan, savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish eng ustuvor vazifa hisoblanadi. Oxirgi besh yilda tovar aylanmasi ikki baravar oshdi. 2022-yilda o'zaro tovar ayirboshlash hajmi 23,3 foizga o'sdi va 2,34 mlrd. dollarni tashkil qildi. 2025-yilga borib mazkur ko'rsatkichni 5 mlrd. dollarga yetkazish uchun katta imkoniyatlar mavjudligi aytib o'tildi.

Xususan, aniq maqsadlarga e'tibor qaratilib, qator qo'shma loyihalarni amalga oshirish, jumladan, ishlab chiqarish korxonalarini zarur infratuzilma bilan ta'minlash, noyob metallarni o'zlashtirish, shuningdek, yuqori tezlikda harakatlanish imkonini beruvchi yo'llar barpo etish borasida hamkorlikni kuchaytirish lozimligi ta'kidlandi.

Madaniy-gumanitar aloqalar ham tomonlarning diqqat markazida bo'ldi, ta'lim va kadrlar tayyorlash yo'nalishlaridagi qo'shma dasturlarni amaliy mazmun bilan boyitish takliflari ilgari surildi.

Mamlakatlarimiz poitsiyalarining yaqinligidan kelib chiqib, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar, jumladan, BMT institutlari va boshqa tuzilmalar doirasida bir-birini qo'llab-quvvatlashga, ko'p qirrali hamkorlikning ustuvor va istiqbolli yo'nalishlari bo'yicha ikki tomonlama munosabatlarni yanada darajaga olib chiqishga kelishib olindi.

"Xalq so'zi".

Qardoshlik rishtalari

Ozarbayjonning Fuzuliy tumanida qurilgan maktabda birinchi qo'ng'iroq

O'zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan Ozarbayjonning Fuzuliy tumanida bunyod etilgan Mirzo Ulug'bek nomidagi 1-umumta'lim maktabida birinchi qo'ng'iroq chalindi.



Tadbirida Ozarbayjon Prezidentining maxsus vakili Emin Huseynov, fan va ta'lim vaziri Yemin Amrullayev, Qorabog' viloyati xalq ta'limi boshqarmasi rahbarlari, o'qituvchilar va jamoatchilik vakillari ishtirok etdi.

Tadbirida ta'kidlanganidek, Fuzuliyda 23-avgustkuni Ozarbayjon Prezidenti Ilhom Aliyev, birinchi xonim Mehribon Aliyeva, O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va uning rafiqasi Ziroatxon Mirziyoyeva tomonidan ochilgan Mirzo Ulug'bek nomidagi 1-umumiy o'rta ta'lim maktabida o'quv yilining boshlanishi turkiy dunyo xalqlari qardoshligini namoyon etadigan ramziy ma'noga ega.

Yaqin vaqt oraliqida qayta tiklanayotgan Fuzuliyda boshqa ta'lim muassasalari faoliyati ham boshlanishi, Qorabog' zaminida tahsil olayotgan talabalar

Ozarbayjon ilm-fani ravnaqiga o'z hisslarini qo'shishi aytiladi.

Marosimdan so'ng maktabda birinchi qo'ng'iroq chalindi, mehmonlar maktabda yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi.

Eslatib o'tamiz: Mirzo Ulug'bek nomidagi 1-maktab 960 o'quvchiga mo'ljallangan bo'lib, unda 40 ta o'quv xonasi, 6 ta laboratoriya, 2 ta informatika xonasi, 5 ta funksional o'quv xonalari, yig'ilish hamda sport zallari, oshxona va kutubxona mavjud. Maktab hududida futbol maydoni, dam olish va tadbirlar o'tkaziladigan joylar, yugurish yo'laklari qurilgan. Yangi o'quv yilida maktabning 11 sinfida 160 nafar o'quvchi tahsil oladi, o'qituvchilar jamoasi 15 kishini tashkil qiladi.

"Dunyo" AA.
Boku

Markaziy Osiyo:

TINCHLIK VA FAROVONLIK SARI DADIL QADAM

Prezident Shavkat Mirziyoyevning Tojikiston Respublikasi poytaxti Dushanbe shahrida bo'lib o'tgan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvidagi ishtiroki hamda nutqi jahon hamjamiyati va xalqaro ekspertlar tomonidan qizg'in kutib olindi.

Fikr

Bugungi dunyo bir qaraganda o'ta taraqqiy etgan, boshqa tomondan esa juda qo'choq. Ba'zan tinch va xotirjam. Gohida notinch va turli tahdidlar girdobida qolayotganini ko'ramiz.

Lekin jahon siyosatining yozilmagan qoidalari ham borligini inkor etib bo'lmaydi. Bu haqiqat, ayniqsa, ma'lum bir mintaqalar, hududlar, chegaralar, yaqin qo'shnilar o'zaro munosabatlarida ko'zga yaqqol tashlanadi. Bu talab va tamoyillardan Markaziy Osiyo ham chetda emas.

Afsuski, bitta vujudga aylangan Markaziy Osiyo va uning xalqlari o'rtasidagi munosabatlarni boshqa davlatlar, ya'ni uchinchi tomon belgilashi, qaror qabul qilishi bir asrdan ko'proq vaqt davom etdi. Markaziy Osiyo mamlakatlari mustaqillikka erishishi natijasida muammo va ziddiyatlar yanada ortishi, tashqi kuchlarning doimiy bosimi ostida qolish yana chorak asr vaqt hukm surganini afsus-nadomat bilan qayd etamiz.

2016-yilga kelib, O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi, talabi, kuchli siyosiy irodasi bilan Markaziy Osiyo davlatlari hamjihatligi, birdamligi tiklandi. Mintaqa davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvi — siyosiy institut yaratildi.

Tarixda birinchi marta besh mamlakat rahbarlari va delegatsiyalari bir stol atrofida o'tirib, muammolarni yechishga, hal etishga, o'zaro hurmat va manfaatlar hisobga olinishiga erishildi. Natijada "Markaziy Osiyo nuqtai nazari", "Markaziy Osiyo fikri", "Markaziy Osiyo qarashlari" degan tushunchalar jahon diplomatiyasida paydo bo'ldi, deiyish uchun to'la asoslarimiz bor.

Ayni chog'da jahon hamjamiyati,

xalqaro tashkilotlar e'tirof etadigan va qizg'in qo'llab-quvvatlaydigan tuzilmalar qatorida bugun mintaqamiz davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvi ham muhim o'rin egallaganini faxr-iftixor bilan ta'kidlamochimiz.

Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvi o'tgan qisqa davr ichida nufuzli tuzimga aylandi. Buning natijasida "Markaziy Osiyo tinchlik ruhi", "Markaziy Osiyo taraqqiyoti", "Markaziy Osiyo manfaati", "Markaziy Osiyo nuqtai nazari" degan tushunchalar ilgari surila boshlandi.

Chorak asr davomida boshi berk ko'chaga kirib qolgan Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi chegaralar muammolari bo'yicha muzokara qayta tiklandi va ijobiy natijalarga erishila boshlandi. Mamlakatlar o'rtasidagi chegaralar postlari ochilishi, barcha sohada aloqalarning tiklanishi, bir-birini qo'llab-quvvatlash va tushunish, o'zaro qadriyatlar tiklanishi dunyoning nufuzli minbarlarida ham e'tirof etilib, yaqin mamlakatlar va mintaqalarga o'mak qilib ko'rsatilmoqda.

Bugun, ayniqsa, O'zbekiston tomonidan jiddiy sa'y-harakati bilan Markaziy Osiyo mamlakatlari o'zining qadimiy o'zaniq tushib olganini va taraqqiy etayotganini ko'rib-tilib turibmiz.

Tarix guvohki, sun'iy to'siqlar hech qachon abadiy turmaydi. Qon-qardosh bo'lgan xalqlar o'rtasini buzishga bo'lgan urinishlar ayanchli tugaydi. Yaqin qo'shnilar — tili, dini, diili bir xalqlarni ajratmoqchi bo'lgan, ular o'rtasiga nifoq soladiganlar o'sha xalqlar nafraati va tavqi lan'atiga uchraydi. Bu borada mintaqaning og'ir va alamli kecmishi ham bizga saboq bo'lishi kerak.

Bu notinch dunyoda yakkalanib qolish juda xavfli. Bu achchiq qismat yaqin



tariximizda boshimizdan o'tdi. Yakkalanib qolish nafaqat davlat iqtisodiyotiga, balki uning mustaqilligiga ham ulkan xavf-xatar ekanligini anglab yetdik va xulosalar chiqardik.

Markaziy Osiyo xalqlari bir daryodan suv ichadi. Zaminini zaminiga tutash, tog'lari tog'lariga ulanib ketgan. Yaratgan nafaqat tabiatimizni, balki qalblarimizni ham tutashdirgan. Bu o'zbek — tojik, o'zbek — qozoq, o'zbek — qirg'iz, o'zbek — turkman, o'zbek — ozar oilalari misolida ham namoyon.

Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvida davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, bugungi ahvoldi bizni qoniqtirmasligi kerak. Biz yanada yaqinlashish, o'zaro teng va manfaatli munosabatlarni barqarorlashtirish yo'lidan borishimiz, to'xtab qolmasligimiz zarur.

Prezidentimiz tomonidan Maslahat uchrashuvida mintaqaga uchun o'ta dolzarb va muhim bo'lgan bir qator takliflar ilgari surilganini ham aytib o'tish darkor.

Xususan, Markaziy Osiyo yoshlari taqdiriga aloqador fikrlar yig'ilish ishtirokchilari tomonidan mamnuniyat bilan kutib olindi.

Ta'kidlanganidek, mamlakatlarimizdagi iste'dodli yoshlar uchun ilm-fan va ta'lim sohahida al-Xorazmiy, Fero'biy, Jomiy, Maxtumquli, Chingiz Aytmatov kabi Markaziy Osiyo mintaqasidan yetishib chiqqan buyuk mutafakkirlar, alloma va faylasuflar nomidagi mintaqaviy grant

hamda stipendiyalarni ta'is etish muhim, deb hisoblamiz.

Ertangi kunimiz bo'lgan Markaziy Osiyo yoshlarining birdamligiga alohida e'tibor qaratishimiz, ularni milliy qadriyatlarimiz va merosimiz ruhida tarbiyalashimiz muhim ekanligini bugun hayotning o'zi ko'rsatmoqda.

Globallashuv zamonida, do'stlik va qadriyatlar oyoqosti bo'lgan bir davrda yashayotganligimizni unutmasligimiz kerak.

"Markaziy Osiyo" tushunchasini ilmiy asoslash, uning tarixi, kelajagi bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, ilmiy anjumanlar o'tkazish, bir butun tariximizni yaratish olinmalarimiz zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi.

Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvida birinchi marta Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyevning ishtiroki etishi ham mazkur tuzilmaga jahon hamjamiyatida qiziqish va intilish tobora ortib borayotganligini bildiradi.

Mazkur nufuzli anjuman doirasida bir qator hujjatlar imzolandi. O'zaro kelishuvlarga erishildi. Isteqboldagi rejalar belgilab olindi.

Umuman, Maslahat uchrashuvida Markaziy Osiyo birdamligi yo'lida muhim qadam tashlandi.

Rustam XOLMURODOV,
Samarqand davlat universiteti rektori,
Oliy Majlis Senati a'zosi.

Aks sado

XALQLARIMIZ MANFAATLARIGA DAXLDOR

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Tojikiston poytaxti Dushanbe shahrida bo'lib o'tgan Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi ta'sischi davlatlari rahbarlari kengashi majlisida qatnashdi.

Avvalo aytish joizki, tashkil qilinganiga 30 yil to'lgan Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi ekologik tahdidlarga qarshi kurash masalalarida davlatlarning umumiy manfaatlarini ilgari surish uchun muhim maydon sifatida g'oyat zarurligini namoyish etdi. O'tgan vaqt mobaynida Orol dengizi havzasi bo'yicha kelishilgan yondashuvlar ishlab chiqildi, qo'shma qaror va dasturlar qabul qilinib, amalga oshirildi.

Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi — bu, avvalo, Markaziy Osiyo mamlakatlarining global miqyosdagi eng o'tkir muammolardan birini yechish bo'yicha ko'p tomonlama hamkorlik borasidagi noyob tajribadir. Jamg'arma nafaqat Orol fojiasi ko'lamini kamaytirish bilan mashg'ul, balki suv va ekologiya sohahida mintaqaviy hamkorlikning eng muhim platformasiga aylandi. Ayni chog'da u bir qator mintaqaviy dasturlar va loyihalarni amalga oshirish bo'yicha ishlarni muvofiqlashtirib, xalqaro institutlar va donor tashkilotlar bilan hamkorlik qilmoqda. Shu ma'noda, tuzilmalar o'rni va ahamiyati global iqlim o'zgarishlari oqibatida vujudga kelayotgan yangi xavf va tahdidlar sharoitida yanada ortib borishi, shubhasiz.

Global iqlim o'zgarishi mintaqamizga ham begona emas. Muzeklarning erishi, tabiiy ofatlar, shuningdek, shiddatli demografik o'sish, urbanizatsiya jarayonlari va sanoatlashuv natijasida yuzaga kelayotgan texnologik omlar tufayli mintaqada suv hamda ekologiya bilan bog'liq vaziyat yomonlashib borayotgani va uning oqibatlari xavotir uyg'otmay qolmaydi.

Ekspertlarning hisob-kitoblariga ko'ra, Markaziy Osiyoning ayrim mintaqalarida 2040-yilga borib, suv resurslariga bo'lgan ehtiyoj uch barobar oshadi. Vaqt o'tishi bilan iqtisodiy zarar yalpi mintaqaviy mahsulotning 11 foiziga yetishi mumkin. BMT ma'lumotiga ko'ra, hozirning o'zidayoq mintaqada davlatlari suv resurslari taqchilligi va undan samarasiz foydalanish oqibatida yiliga 2 mlrd. dollargacha mablag' yo'qotmoqda. Bularning barchasi jamg'arma doirasida uzoq muddatli istiqbolga mo'ljallangan kelishilgan yangi qarorlarni ishlab chiqish va amalga oshirishni talab etadi.

Shu nuqtai nazardan, davlatimiz rahbari sammitning kun tartibiga mos ravishda qator aniq taklif va tashabbuslarni ilgari surdi. Birinchidan, O'zbekiston Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasining huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish va institutsional mexanizmlarini modernizatsiyalash tarafdori. Chunki 1990-yillarda qabul qilingan jamg'arma nizomi eskirib bo'ldi, uni qayta ko'rib chiqish, amaldagi tuzilma faoliyatini birgalikda tahlil etish va jamg'arma tarkibidagi tashkilotlar ishini muvofiqlashtirish hamda samarasini oshirish borasida takliflar tayyorlash vaqti pishib yetildi. Davlatimiz rahbari uning faoliyati va hamkorlik masalalarini aniq tartibga soluvchi "Qoida va tartib-taomillar"ni ishlab chiqishni taklif etdi.

Energetika va oziq-ovqat kelajagi suv bilan bog'liq. Suv tanqisligining oldi olinsa,

elektr quvvati va oziq-ovqat muammosi ham ijobiy hal bo'ladi. Shuning uchun jamg'armani rivojlantirish va isloh etish jarayonlarini tarmoqlararo tamoyil asosida, ya'ni zamonaviy ekologik tahdidlarni hisobga olgan holda, "suv — energetika — oziq-ovqat" tartibidagi kompleks yondashuvlar negizida amalga oshirish muhimligi tilga olindi.

Ikkinchidan, Orol dengizi havzasi mamlakatlarga yordam ko'rsatish bo'yicha to'rtinchi dasturning ijrosi bilan bog'liq holat ham mintaqadagi mamlakatlarni tashvishga solishi muqarrar. Chunki dunyodagi ziddiyat va qarama-qarshiliklar fonida jamg'armaning loyihalarni moliyalashtirish murakkablashib boryapti. Shu munosabat bilan Prezidentimiz tomonidan jamg'arma boshqaruvida amaldagi Dasturni tanqidiy qayta ko'rib chiqish topshirig'ini berish taklif etildi.

Uchinchidan, ustuvor mintaqaviy loyihalarni ilgari surish uchun investitsiya, texnologiya va texnik ko'makni jalb qilish masalalari bo'yicha tizimli hamkorlikni kuchaytirish, har bir a'zo mamlakat mintaqaviy loyihalarga chetdan ko'makni jalb etish bo'yicha o'ziga majburiyat olishi, raislik qiluvchi tomonning muvofiqlashtirish asosida investitsiyalarni va texnik ko'makni jalb etish va taqsimlash mexanizmlarini ishlab chiqish zarurligi aytiladi. Qolaversa, xorijiy sheriklar, yetakchi xalqaro institutlar va donor tashkilotlarni jalb qilgan holda, qo'shma loyihalarni amalga oshirishni tezlashtirish maqsadida maxsus mintaqaviy konferensiyaga o'tkazish taklif etildi.

To'rtinchidan, jamg'armaning ishchi organlariga xalqaro konsultantlar ishtirokida Amudaryo va Sirdaryo havzalari rivojlantirish bo'yicha uzoq muddatga mo'ljallangan rejalar ishlab chiqish topshirig'ini berish taklifi ilgari surildi. Bunday strategik hujjatlarning qabul qilinishi mintaqamizda suv-energetika resurslarini integratsiyalashgan holda boshqarish siyosatini muvofiqlashtirishga imkon beradi.

Beshinchidan, suv taqchillashib borayotgan bir paytda suvdan oqilona, tejab-tergab foydalanish maqsadga muvofiq. Shu bois Prezidentimiz suv va boshqa tabiiy resurslardan tejab-tergab foydalanish madaniyatini shakllantirish, maxsus dasturni qabul qilgan holda yoshlar tashabbuslari va startaplarni qo'llab-quvvatlash masalalarida yoshlar bilan ishlashni mintaqaviy darajada tashkil etishga alohida e'tibor qaratishga chaqirdi.

Muxtasar aytganda, Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi ta'sischi davlatlari rahbarlari majlisida ilgari surilgan tashabbuslar va qabul qilingan hujjatlar ijrosi xalqlarimiz farovonligi va Markaziy Osiyo mintaqasining gullab-yashnashi yo'lida o'zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirish va samaradorligini oshirishga yo'l ochadi.

Abdumalik AKROMOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi

Qonunchilik palatasi fraksiyalarida

YURTIMIZ RAVNAQINI KAFOLATLASHGA OID HAYOTIY NORMALAR AKS ETMOQDA

Siyosiy partiyalarning Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi fraksiyalarining yig'ilishlari bo'lib o'tdi. Ularda mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotiga daxldor, tadbirkorlik faoliyatini yanada takomillashtirish hamda islohotlarni yangi bosqichga ko'tarishga doir muhim qonun loyihalari muassal ko'rib chiqildi.

Biznes-ombudsman faoliyatida qanday yangiliklar kutilyapti?

Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati — O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil to'g'risida"gi Qonunga o'zgartirishlar kiritish haqida"gi qonun loyihasi muhokama etildi.

Ta'kidlanganidek, mamlakatimizda olib borilayotgan tizimli islohotlar tufayli tadbirkorlar uchun odil sudlovga murojaat qilish imkoniyatlari kengaydi, davlat organlari bilan nizolarni sudgacha hal etish hamda boshqa muqobil institutlar tashkil qilindi. 2017-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakili institutining yo'lga qo'yilgani esa ushbu sohada yangi imkoniyatni eshigini ochib berdi.

O'zLiDeP fraksiyasi rahbari A. Haitov qayd etganidek, kichik biznes va erkin tadbirkorlik — kuchli iqtisodiyot asosi. So'nggi yillarda yurimizda sohani rivojlantirishga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilib, tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan aniq manzilli chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Mazkur qonun loyihasi bilan Biznes-ombudsman faoliyatini tartibga soluvchi maxsus qonunga uning va devonining maqomini davlat orqali sifatida aniqlashtiruvchi o'zgartirishlar kiritilmoqda. Qonun loyihasining qabul qilinishi esa davlat organlari, tadbirkorlik subyektlari, fuqarolik jamiyati institutlari va xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro aloqalarni o'rnatishdagi noaniqliklarni bartaraf etadi.

Muhokamalar davomida deputatlar O'zLiDeP mamlakatdagi yetakchi siyosiy kuch sifatida tadbirkorlik faoliyatini to'xtatish qonunchilikni yanada takomillashtirish, sohada qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlarning amalga oshirishini yuzasidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish masalalariga alohida e'tibor qaratishni qayd etdilar. Partiya maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda qonun loyihasini yanada takomillashtirish, pishiq-puxta holatga kelib borayotgan bir qator takliflar berildi. Qizg'in savol-javoblardan so'ng hujjat loyihasi deputatlar tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga qo'shimchalar kiritilmoqda

O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi fraksiyasi a'zolari "O'zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-prosessual kodekslariga hamda O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi qonun loyihasini ko'rib chiqdi.

Qayd etilganidek, so'nggi yillarda mamlakatimizda barcha sohaga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishga qaratilgan keng ko'lami islohotlar amalga oshirilmog'la. Lekin ayrim shaxslarning zamonaviy raqamli texnologiyalar yutuqlaridan noqonuniy hamda g'arazli maqsadlarda foydalanishi natijasida fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlari buzilib, davlatga zarar yetmoqda. Bu esa raqamli texnologiyalar yordamida sodir qilinayotgan yangi turdagi jinoyatlar uchun javobgarlik belgilashni taqozo etyapti.

Mazkur qonun loyihasi bilan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga mobil qurilmang xalqaro o'ziga xos identifikatsiya kodini yoki abonent qurilmasining identifikatsiyalash modulini qonunchilik hujjatlariga zid ravishda o'zgartirishni yoki nusxasini yasaganlik, kripto-aktivlar aylanmasi sohahidagi qonunchilik hujjatlarini buzganlik va qonunga xilof ravishda mayning faoliyatini amalga oshirganlik uchun ma'muriy javobgarlikni nazarda

tutuvchi qo'shimchalar kiritilmoqda.

— Qonun loyihasining qabul qilinishi axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda sodir etilayotgan yangi turdagi jinoyatning oldini olishga hamda javobgarlikning muqarrarligini ta'minlashga xizmat qiladi, — deydi "Milliy tiklanish" DP fraksiyasi a'zosi Davron Aripov. — Qonun loyihasini ko'rib chiqish chog'ida amin bo'ldikki, uni ikkinchi o'qishga tayyorlash jarayonida mas'ul qo'mita tomonidan bir qator ishlar amalga oshirilgan. Deputatlar tomonidan berilgan barcha taklif, fikr-mulohazalar chuqur tahlilidan so'ng ushbu hujjat pishiq va puxta holatga keltirilgan. Albatta, bu hujjatning yanada mukammal bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Savol-javob va muhokamalardan so'ng qonun loyihasi qo'llab-quvvatlandi.

Advokatlarni elektron tizim orqali tanlash tartibi joriy etiladi

"Davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi qonun loyihasi O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida ko'rib chiqildi.

Ta'kidlab o'tilganidek, mamlakatimizda inson huquqlari va manfaatlarini so'zsiz ta'minlash, fuqarolarning odil sudlovga erishish darajasini yanada oshirish va malakali yuridik yordam olishga bo'lgan huquqlari kafollatlarini kuchaytirishga doir tizimli ishlar olib borilmoqda. "Davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish to'g'risida"gi Qonun qabul qilinib, fuqarolarga Konstitutsiyada kafollatlangan malakali yuridik yordam olish huquqidan to'liq foydalanish imkoniyati yaratildi.

Shuningdek, sud ishini yuritishning barcha bosqichida tomonlar tortishuvi prinsipining lozim darajada ishlashini tashkil etishga qaratilgan chora-tadbirlar izchil amalga oshirilib, advokatlar professional faoliyatini bajarishi uchun zarur qonunchilik bazasi yaratildi.

Taklif qilinayotgan qonun loyihasining maqsadi jismoniy shaxslarga mamlakatimiz Konstitutsiyasi va xalqaro shartnomalar bilan kafollatlangan o'z huquq va qonuniy manfaatlarini ro'yog'ga chiqarish hamda himoyasi uchun zarur bo'lgan barqaror va ishonchli, davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish tizimini yaratish, yuridik yordam olish va odil sudlovga erishishda teng imkoniyatlardan foydalanishni ta'minlashdan iborat.

— Ushbu hujjatga ko'ra, davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatiladigan ishlar ro'yatiga fuqarolik va ma'muriy ishlarni kiritish orqali fuqarolarning bequl yuridik yordam olish imkoniyatlari kengaytirilmoqda, — deydi "Adolat" SDP fraksiyasi a'zosi Dilimurod Ismoilov. — Shu bilan birga, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilgan holda davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatadigan advokatlarni inson omilisiz elektron tizim orqali tasodifiy tanlash tartibi joriy etilyapti. Aytish mumkinki, ushbu hujjatning qabul qilinishi fuqarolarning odil sudlovga erishish darajasini yanada oshirish va malakali yuridik yordam olishga bo'lgan kafollatlarini kuchaytirishga, mamlakatning tegishli xalqaro reytinglar, jumladan, Huquq ustuvorligi indeksi (Rule of law) dagi o'rini yaxshilashga yo'l ochadi.

Yig'ilish davomida deputatlar tomonidan partiya qonuniasidan kelib chiqqan holda ko'tarilgan savollarga pozitiv tashabbuskorlari va soha mutaxassislaridan atroficha javoblar olindi.

Ijara munosabatlaridagi huquq va erkinliklar yanada mustahkamlanmoqda

O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida "O'zbekiston Respublikasining ayrim

qonunlariga nogironlari bo'lgan shaxslarning ijara munosabatlaridagi huquq va erkinliklarini yanada mustahkamlash hamda pensiyalarni tayinlash va to'lash tartibini takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirishlar kiritish haqida"gi qonun loyihasi ko'rib chiqildi.

Ta'kidlanganidek, qonun loyihasi bilan "Ijara to'g'risida"gi va "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonunlarga tegishli o'zgartirishlar kiritish nazarda tutilmoqda.

Ushbu qonun loyihasida nogironlari bo'lgan shaxs, deb topilgan ijara amalidagi ijara shartnomasi bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishni davom ettirish istagini bildirgan taqdirida shartnomaning amal qilishi to'xtatilmisligi belgilanmoqda.

Shuningdek, mahkumlarning ozodlikdan mahrum qilingan davrda amalga oshirgan mehnat faoliyatini pensiya olish huquqini beradigan faoliyat turi sifatida belgilash, pensiyalarning miqdorini iste'mol narx (tarif) lari indeksi (inflyatsiya) darajasining o'sish sur'atlarini hisobga olgan holda belgilash ko'zda tutilmoqda.

Bundan tashqari, o'z vaqtida talab qilib olinmagan pensiya pulini olish maqsadida murojaat qilingandan oldingi yigirma to'rt oydan oshmagan davr uchun ham pensiyalarni to'lash tartibi joriy etilyapti.

Deputatlar loyihani muhokama qilgan ekan, uning muhimligi, partiya elektorati manfaatlariga to'la mos kelishini e'tirof etib, ushbu hujjat inson manfaatlarini himoya qilish, fuqarolarning kundalik turmush tarzini yaxshilashga zamin yaratishni ta'kidladilar. Qizg'in fikr-mulohazalardan so'ng qonun loyihasi fraksiya a'zolari tomonidan ma'qullandi.

Ekologik holatni yanada yaxshilashga xizmat qiladi

O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga korxonalar, tashkilotlar, inshootlar va boshqa obyektlar faoliyatini cheklash, to'xtatib turish yuzasidan qaror qabul qilish mezonlarini belgilashga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi qizg'in muhokama etildi.

Ta'kidlanganidek, so'nggi yillarda mamlakatimizda ekologik holatni yaxshilash, aholi punktlarini ko'kalimzorlashtirish, yashil maydonlarni kengaytirish, sanitariya va ekologik holat sifatini oshirish orqali insonlar sog'lig'ini muhofaza qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmog'la.

Ko'riyotgan chora-tadbirlarga qaramasdan qurilish, sanoat ishlab chiqarish va urbanizatsiya ko'lamining kengayishi tabiatga chiqariladigan tashlamalarning ortishiga hamda aholi punktlariga tushayotgan ekologik va ijtimoiy yuklarning oshishiga olib kelayotir.

Shundan ham ma'lumki, sohaning huquqiy asoslarini yanada mustahkamlash maqsadida ishlab chiqilgan mazkur qonun loyihasida atrof tabiiy muhitning me'yoridan ortiqcha darajada ifloslanishi natijasida fuqarolarning hayoti va sog'lig'iga xavf yuzaga kelishining

BMT O'ZBEKISTON TASHABBUSLARI UCHUN MUHIM MAYDON

Bugun — 19-sentabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) Bosh Assambleyasi 78-sessiyasining umumiy muhokamalarida nutq so'zlaydi hamda mintaqaviy va global kun tartibidagi dolzarb masalalar yuzasidan o'z nuqtai nazarini bayon qiladi.

Nuqtai nazar



Ta'kidlash joizki, Birlashgan Millatlar Tashkiloti o'z nomi bilan butun dunyo mamlakatlarini birlashtirgan universal xalqaro tashkilotdir. O'zbekiston ushbu xalqaro tuzilmaga istiqolning dastlabki oylaridayoq — 1992-yil 2-mart kuni a'zo bo'lgan. O'tgan davrda o'zaro aloqalar izchil rivojlandi.

O'zbekiston BMT Ustavi, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va boshqa asosiy xalqaro shartnomalardagi maqsad va prinsiplarga sodiq bo'lib, o'z zimmasiga olgan majburiyatlarni og'ishmay bajarib kelmoqda. BMTning teng huquqli va to'laqonli a'zosi sifatida tenglik, hamkorlik, ko'ptomonlama va xalqaro siyosiy tizimni himoya qilish prinsiplariga so'zsiz amal qilishini namoyish etayotir. So'nggi vaqtlarda xalqaro nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish, yangi global qurolli to'qnashuvlarning oldini olish, mamlakatlar o'rtasida hamkorlikni yo'lga qo'yish, global muloqot va butun dunyoda inson huquqlarini himoyalash kabi g'oyalarni faol ilgari surmoqda.

O'zbekistonning BMT bilan hamkorligi so'nggi yetti yilda mulatto qonunlariga ko'tarildi. Prezident Shavkat Mirziyoyev BMT

Bosh Assambleyasining 72, 75 va 76-sessiyalarida, shuningdek, 2021-yilda BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashining 46-sessiyasida nutq so'zlashdi. Ularda O'zbekistonning xalqaro va mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlash, ta'lim, ma'naviyat, ekologiya, turizmni yanada rivojlantirish, inson huquqlari himoyasi va boshqa sohalaridagi tashabbuslarni e'lon qiladi.

Shu bilan birga, BMT shafeligida mamlakatimizda qator xalqaro konferensiyalar o'tkazildi. 2017-yilda Samarqandda "Markaziy Osiyo: bir o'tmish va umumiy kelajak, barqaror taraqqiyot va o'zaro farovonlik yo'lida hamkorlik" konferensiyasi, 2018-yilda Toshkentda "Tinchlik jarayoni, xavfsizlik sohasida hamkorlik va mintaqaviy sheriklik", 2021-yilda Xivada "Markaziy Osiyo jahon sivilizatsiyalari chorrhasida" xalqaro forumlari o'tkazildi.

Inson huquqlari himoyasi BMT bilan hamkorlikning ustuvor yo'nalishlaridan biri. Bugun mamlakatimizda demokratiyaning zamonaviy va inson huquqlari mezonlariga javob beradigan barqaror siyosiy tizimi barpo qilingan,

qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi organlar va sud hokimiyati faol ishlamoqda. Eng muhimi, jamiyatda Konstitutsiyaga va mamlakat qonunlariga hurmat qaror topgan.

Bugungi dunyoda turli tahdid va xatarlar tobora ko'payib borayotir. Jahon iqtisodiyotida konyunktura o'zgarayotgan, globallashuv va raqobat kuchayib borayotgan bugungi sharoit barcha mamlakatlarning yanada barqaror va uyg'un rivojlanishi uchun mulatto yangi g'oya va prinsiplarni ishlab chiqish va amalga oshirishni talab etadi.

O'zbekiston 2015-yil sentabr oyida BMT sammitida qabul qilingan Barqaror rivojlanish maqsadlarini samarali amalga oshirishga doir global miqyosda ko'rilayotgan chora-tadbirlarni ma'qulladi va har tomonlama qo'llab-quvvatlamoqda. Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar samaradorligini tubdan oshirish, davlat va jamiyatni har tomonlama va jadal yangilash uchun sharoitlar yaratish bo'yicha keng ko'lami ishlar amalga oshirilmoqda. Shu maqsadda 2017-yil 7-fevral kuni 2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi, keyinroq 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi tasdiqlandi. Mazkur hujjatning asosini mamlakatimizni ijtimoiy-siyosiy, sotsial-iqtisodiy va madaniy-gumanitar isloh qilishning konseptual masalalari tashkil etadi.

O'zbekiston jadal rivojlanar ekan, jamiyatimizda siyosiy faollik ortib bormoqda, barcha sohada chuqur islohotlar amalga oshirilmoqda. Ulardan ko'zlangan maqsad — "Inson manfaatlarini hamma narsadan ustun" tamoyilini amalga oshirish ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan demokratik davlat va adolatli jamiyat barpo etishdan iborat. Odamlarning erkin harakatini cheklaydigan xorijga chiqish vizalari singari umrini mulatto o'tab bo'lgan o'tmish qoldiqlari bekor qilindi. Insonparvarlik tamoyillaridan kelib chiqib, shaxsni qamoqda saqlash bilan bog'liq ko'plab holatlar qayta ko'rib chiqildi. Ekstremizm g'oyalari ta'siriga tushib qolgan, to'g'ri yo'lidan adashgan fuqarolar ijtimoiy rehabilitatsiya qilindi, ularni sog'lom hayotga qaytarish uchun zarur sharoitlar yaratildi. Endilikda inson huquq va erkinliklari himoyasi

sohasidagi huquqni muhofaza etish organlari faoliyati parlament va fuqarolar tomonidan doimiy nazorat qilib borilmoqda.

Iqtisodiyotni liberallashtirish, qulay investitsiya muhitini yaratish amalga oshirilayotgan o'zgarishlarning eng muhim yo'nalishlaridir. O'zbekistonda milliy valyutani erkin konvertatsiya qilish tizimiga to'liq o'tildi. Bu borada aholi uchun yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlarni yumshatish bo'yicha barcha zarur choralar ko'rildi. Mamlakatimizda ilk bor tadbirkorlar huquqlarini himoya qilish bo'yicha Ombudsman instituti joriy etildi. Biznes sohasidagi soliqlar sezilarli ravishda qisqartirildi, kredit olish imkoniyatlari

“O'zbekistonning BMT bilan hamkorligi so'nggi yetti yilda mulatto yangi darajaga ko'tarildi. Prezident Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72, 75 va 76-sessiyalarida, shuningdek, 2021-yilda BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashining 46-sessiyasida nutq so'zlashdi. Ularda O'zbekistonning xalqaro va mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlash, ta'lim, ma'naviyat, ekologiya, turizmni yanada rivojlantirish, inson huquqlari himoyasi va boshqa sohalaridagi tashabbuslarni e'lon qiladi.”

kengaytirildi. Yangi erkin iqtisodiy zonalar ochildi, ularda investorlarga keng imtiyozlar yaratib berildi. Xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik muvaffaqiyatli rivojlanmoqda. O'zbekiston barqaror taraqqiyot



sohasida BMT bilan yaqin hamkorlik qiladi. BMTning 2030-yilgacha kun tartibida bo'lgan masalalarni amalga oshirish maqsadida hukumat tomonidan 2030-yilgacha davrni qamrab olgan Barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalar qabul qilindi.

O'zbekiston Prezidenti tomonidan imzolangan Harakatlar strategiyasi va Taraqqiyot strategiyasi BMT barqaror rivojlanish maqsadlarini ijrosining besh yillik "yo'l xaritalari" hisoblanadi. Ma'lumki, 2020-yilning 24-fevralida BMT Bosh kotibi A. Guterrish "Yuksak intilish: inson huquqlari uchun harakatga chaqiriq" nomi ostidagi tashabbusni ilgari surdi. Uning eng muhim mohiyati — fuqarolik jamiyatini kuchaytirish, gender tenglikni ta'minlash, erak va ayollarning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotda, shuningdek, axborot erkinligida tengligiga erishish zaruriyatini hisoblanadi.

BMTning mazkur tashabbusi O'zbekistonning ayni sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlari bilan hamohang. Zero, inson huquqlarini ta'minlamasdan turib, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy va madaniy-gumanitar taraqqiyoti yo'lidagi muammolarini yechish imkonsiz.

Bugun dunyo aholisining 2 milliard nafarini yoshlar tashkil etadi. Tabiiyki, sayyozimizning erangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq. O'shlarining o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zo'rvonlik g'oyasi "virusi" tarqalishining oldini olish muhim vazifa. Buning uchun yosh avlodni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, uning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasidagi ko'p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish lozim. Shu munosabat bilan O'zbekiston Prezidenti globallashuv va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadal rivojlanib borayotgan bugungi sharoitda

yoshlarga oid siyosatni shakllantirish va amalga oshirishga qaratilgan umumlashtirilgan xalqaro huquqiy hujjat — BMTning Yoshlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiyasini ishlab chiqishni taklif etdi.

O'zbekiston iqlim o'zgarishlariga qarshi kurash, atrof-muhit va bioxilmaxillikni muhofaza qilish masalalariga jiddiy e'tibor qaratib kelmoqda. Aynan davlatimiz rahbari tashabbusi bilan 2018-yil may oyida BMT Bosh Assambleyasining "Orolbo'yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi deb e'lon qilish to'g'risida"gi maxsus rezolyutsiyasi qabul qilindi. BMT shafeligida Orolbo'yi mintaqasi uchun inson xavfsizligi bo'yicha ko'p tomonlama sheriklik asosida trust fondi faoliyat boshladi. Orolbo'yida umumiy qiymati 3 mlrd. dollardan ortiq loyihalar ishlab chiqildi va amalga oshirilmoqda. Orolning qurigan tubida 1,7 million gektardan ortiq maydonda himoya o'rmonzorlari ekildi.

Umuman olganda, o'tgan yillar mobaynida Prezidentimiz mintaqada va global miqyosda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, izchil taraqqiyot, inson huquq va erkinliklarini ta'minlash, konstruktiv muloqotni kengaytirish, shuningdek, iqlim o'zgarishi, oziq-ovqat xavfsizligi muammosi, qashshoqlikka barham berish va kambag'allikni qisqartirish masalalari kabi zamonaviy xatar va tahdidlarga qarshi qaratilgan qator muhim tashabbuslarni ilgari surdi. Asosiysi, O'zbekiston Prezidenti tomonidan ilgari surilgan barcha tashabbuslar jahon hamjamiyati tomonidan keng qo'llab-quvvatlanib, amalioyotga tatbiq etilmoqda.

Ma'lumki, BMT Bosh Assambleyasi sessiyasi insoniyat oldida turgan dolzarb muammolarini muhokama qilish, ularga yechim qidirish masalalariga bag'ishlanadi. Bu borada davlatlarning qarashlari o'rta taqsimlanadi, mintaqalar va xalqlar manfaatlaridan kelib chiqib xulosalar belgilanadi.

Shu ma'noda aytganda, ishonchimiz komilki, Prezidentimizning sessiyadagi ishtiroki va BMTning yuksak minbaridan yangraydigan nutqi O'zbekistonning yangi tarixi sahifalarida muhim ahamiyatga ega bo'lib, uni yanada boyitadi.

To'lg'in TESHABOYEV,
Toshkent moliya instituti rektori,
professor.

REKLAMA

TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

2024-yil uchun oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim institutiga quyidagi ixtisosliklar bo'yicha qabul e'lon qiladi:

TAYANCH DOKTORANTURA: (ishlab chiqarishdan ajralgan holda o'qish uchun)

- 01.02.04 — Deformatsiyalanuvchan qattiq jism mexanikasi;
- 02.00.05 — Sellyuloza va sellulyoza-qog'oz ishlab chiqarish kimyosi va texnologiyasi;
- 02.00.08 — Neft va gaz kimyosi va texnologiyasi;
- 02.00.09 — Tovarlar kimyosi;
- 02.00.13 — Noorganik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi;
- 02.00.14 — Organik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi;
- 02.00.15 — Silikat va qiyin eriydigan nometall materiallar texnologiyasi;
- 02.00.17 — Qishloq xo'jalik va oziq-ovqat mahsulotlariga ishlov berish, saqlash hamda qayta ishlash texnologiyalari va biotexnologiyasi;
- 11.00.05 — Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish.

DOKTORANTURA:

- 02.00.08 — Neft va gaz kimyosi va texnologiyasi;
- 02.00.09 — Tovarlar kimyosi;
- 02.00.13 — Noorganik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi;
- 02.00.14 — Organik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi;
- 02.00.15 — Silikat va qiyin eriydigan nometall materiallar texnologiyasi;
- 02.00.17 — Qishloq xo'jalik va oziq-ovqat mahsulotlariga ishlov berish, saqlash hamda qayta ishlash texnologiyalari va biotexnologiyasi;
- 11.00.05 — Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish.

MAQSADLI DOKTORANTURA PH.D:

- 02.00.08 — Neft va gaz kimyosi va texnologiyasi;
- 02.00.13 — Noorganik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi;
- 02.00.14 — Organik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi;
- 02.00.15 — Silikat va qiyin eriydigan nometall materiallar texnologiyasi;
- 02.00.17 — Qishloq xo'jalik va oziq-ovqat mahsulotlariga ishlov berish, saqlash hamda qayta ishlash texnologiyalari va biotexnologiyasi.

STAJOR-TADQIQOTCHI:

- 02.00.08 — Neft va gaz kimyosi va texnologiyasi;
- 02.00.14 — Organik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi;
- 02.00.17 — Qishloq xo'jalik va oziq-ovqat mahsulotlariga ishlov berish, saqlash hamda qayta ishlash texnologiyalari va biotexnologiyasi;
- 11.00.05 — Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish.

Barcha hujjatlar pdf shaklida tayyorlanib Oliy ta'limdan keyingi ta'limni muvofiqlashtiruvchi Yagona elektron tizimi (<http://phd.mininnovation.uz>) orqali ro'yxatdan o'tgan holda yuboriladi. Hujjatlar 2023-yil 15-oktabrgacha qabul qilinadi.

Stajor-tadqiqotchilik, tayanch doktorantura (PhD), mustaqil izlanuvchilik (PhD) bo'yicha o'qishga talabgorlar quyidagi hujjatlarni taqdim qiladi:

1. Ariza.
2. Qisqacha biografik ma'lumot (obyektivka — namuna 3,5 shakl bo'yicha o'zbekcha va ruscha).
3. Mehnat daftarchasining belgilangan tartibda tasdiqlangan nusxasi (ishlayotgan talabgorlar uchun).
4. Oliy ta'lim muassasasi magistraturasi diplomi, oliy ma'lumot (mutaxassislik dasturlari bo'yicha) to'g'risida diplom nusxasi.
5. Nashr etilgan ilmiy ishlar ro'yxati, shuningdek, ularning nusxalari (kamida bitta maqola va ikkita tezis).
6. Ish joyidan tavsifnoma (mustaqil izlanuvchilar uchun).
7. Ilmiy rahbar (konsultant)ning yozma roziligi.
8. 3x4 sm. hajmda 4 ta fotosurat.
9. Pasport nusxasi.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat stipendiyasi hujjati nusxasi (mavjud bo'lsa).
11. Til bo'yicha milliy (B2) yoki unga mos darajadagi xalqaro sertifikat.

Doktorantura (DSc), mustaqil izlanuvchilik doktorantura (DSc) bo'yicha o'qishga talabgorlar quyidagi hujjatlarni taqdim qiladi:

1. Ariza.
2. Qisqacha biografik ma'lumot (obyektivka, namuna bo'yicha 3,5 shakl, o'zbekcha va ruscha).
3. Mehnat daftarchasining belgilangan tartibda tasdiqlangan nusxasi (ishlayotgan talabgorlar uchun).
4. Oliy ma'lumot, fan nomzodi yoxud falsafa doktori (PhD) yoki xorijiy davlatlarda unga tenglashtirilgan ilmiy darajaga ega bo'lganligi to'g'risidagi diplom nusxasi.
5. Tadqiqot mavzusi bo'yicha ilmiy ma'ruza va fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan doktorlik dissertatsiyasi rejasining batafsil loyihasi.
6. Nashr etilgan ilmiy ishlar ro'yxati, shuningdek, ularning nusxalari (kamida 3 ta maqola va 2 ta tezis).
7. Ish joyidan tavsifnoma (mustaqil izlanuvchilar uchun).
8. Ilmiy rahbar (konsultant)ning yozma roziligi.
9. 3x4 sm. hajmda 4 ta fotosurat.
10. Pasport nusxasi.
11. Ilmiy yutuqlari (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat stipendiyasi hujjati nusxasi).

Kirish imtihonlari 2023-yilning 1 — 25-noyabr kunlari bo'lib o'tadi. Qo'shimcha ma'lumotlarni 71-244-39-81 telefon raqami orqali olishingiz mumkin.

Manzilimiz: Toshkent sh., A.Navoiy ko'chasi, 32-uy. Toshkent kimyo-texnologiya instituti, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi.

TIBBIYOT XODIMLARINING KASBIY MALAKASINI RIVOJLANTIRISH MARKAZI

QUYIDAGI LAVOZIMLARGA KAFEDRALAR BO'YICHA TANLOV E'LN QILADI:

Terapiya fakulteti:

Ichki kasalliklar kafedrasini mudiri, assistenti; Dermatovenerologiya va kosmetologiya kafedrasini assistenti; Gastroenterologiya va fizioterapiya kafedrasining assistenti; Nevrologiya kafedrasini assistenti; Gematologiya va transfuziologiya kafedrasini mudiri; Kardiologiya va gerontologiya kafedrasini mudiri, dotsenti.

Pediatriya fakulteti:

Neonatologiya kafedrasini mudiri; 1-pediatriya kafedrasini mudiri, dotsenti; 2-akusherlik va ginekologiya kafedrasini assistenti; Pediatriyada anesteziologiya va intensiv terapiya kafedrasini stajyor o'qituvchisi.

Xirurgiya fakulteti:

1-stomatologiya kafedrasini dotsenti, assistenti; Stomatologiya, bolalar stomatologiyasi va ortodontiyasi kafedrasini assistenti; Otorinolaringologiya kafedrasini assistenti; Travmatologiya va ortopediya kafedrasini assistenti.

Tibbiy profilaktika fakulteti:

Gigiyena kafedrasini dotsenti; Klinik laborator diagnostika kafedrasini katta o'qituvchisi.

Menejment, ijtimoiy va birlamchi sog'liqni saqlash fakulteti:

Harbiy tibbiy ekspertiza va o'smirlar tibbiyoti kafedrasini mudiri, assistenti; Jamoat salomatligi va sog'liqni saqlashni boshqarish kafedrasini katta o'qituvchisi; Valeologiya kafedrasini assistenti; Oliy ma'lumotli tibbiyot hamshiralari kafedrasini katta o'qituvchisi.

Manzil: Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Parkent ko'chasi, 51-uy. Telefon: 71-267-60-74.

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti jamoasi institutning ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori, professor Sur'at Guliyamovga onasi Saida GULYAMOVANING vafoti munosabati bilan chuqur ta'ziya izhor etadi.

Xalq so'zi Narodnoe slovo

MUASSISLAR: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G 941.33 088 nuxxada bosildi. Hajmi — 2 tabaq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuborish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR: Devonxona 71-259-74-51; Kotibxona 71-259-74-53; e'lonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqdir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 55-uy. Navbatchi muharrir N. Ostonov. Musahhih Sh. Mashrabboyev.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonani manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 09.30 Topshirildi — 10.50 1 2 3 4 5 6